



Received: February 14, 2024
Accepted: March 23, 2024
Available online: March 25, 2024

Aisafar Murtazayeva

Mustaqil izlanuvchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Aisafar Murtazayeva

Independent Researcher,
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: aisafra81@mail.ru
ORCID iD: 0000-0003-1386-2868

MENEJMENT TERMINOLOGIYASINI O'ZLASHTIRISHDA SOHAGA OID LEKSIKOGRAFIK MANBALARNING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Menejment sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning, jumladan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, turizm, bank, moliya va shu kabi boshqa soha vakillarining biror-bir chet tilda kasbiy nutqiy muloqot madaniyatining yetarli darajada emasligi hech kimga sir emas. Mazkur tadqiqotimizdan ko'zlangan asosiy maqsad ham nofilologik oliy ta'lim muassasalaridagi menejment ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tilida kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishdir. Tadqiqotimizning vazifalari esa (1) chet tilida kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishning lingvodidaktik asoslarini o'rganish va tahlil qilish; (2) til ta'limini kasbga yo'naltirishni tizimli tarzda tashkil etish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish; (3) menejment ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tilida kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish; (4) til ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish va uning samaradorligini oshirishda belgilangan vazifalarning qay tarzda bajarilganligi borasidagi fikrlarni o'rganishdan iborat.

Ushbu maqolada ESP (English for specific purposes – maxsus maqsadda o'rgatiladigan ingliz tili) talabarlari uchun kasbga oid lug'atlarni o'rganish va egallashga doir ilmiy izlanishlarning tahlillari beriladi. Xususan, unda mazkur turdagi lug'atlarni o'rganish usullari, boshqa tadqiqotchilimlarning ushbu muammo bo'yicha olib borgan tadqiqotlari va darslarda kasbga oid lug'atlar va atamalarni egallash zarurligi bo'yicha so'z yuritiladi.

THE IMPORTANCE OF SUBJECT-SPECIFIC LEXICOGRAPHIC RESOURCES IN THE ACQUISITION OF MANAGEMENT TERMINOLOGY

ABSTRACT

It is widely known that employees in management positions, such as those in production, economy, tourism, banking, and related fields, often lack sufficient professional communication skills in foreign languages. Our research aims to improve the culture of professional communication in foreign languages among management education students in non-philological higher education institutions. To achieve this goal, we have identified four tasks: (1) studying and analyzing the linguistic and didactic foundations of developing professional communication skills in a foreign language, (2) developing methodological recommendations for systematically organizing language education, (3) creating an effective method for developing professional communication skills in a foreign language among management education students, and (4) studying opinions on implementing the competency-based approach to language education to improve its effectiveness.

This article presents an analysis of scientific research on the study and acquisition of professional vocabularies for students learning English for specific purposes (ESP). It specifically discusses the methods used for learning these types of dictionaries, the research conducted by other scientists on this topic, and the importance of acquiring field dictionaries and terms in classes.

The research conducted experimental and control groups consisting of faculty of management teachers and first-level students at the Tashkent Institute of Chemical Technology (TICHT). The qualitative and quantitative indicators of the

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari Toshkent kimyo-texnologiya instituti (TKTI)dagi menejment fakulteti o'qituvchilari va birinchi bosqich talabalaridan tashkil topgan tajriba va nazorat guruhlari doirasida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlarining sifat va miqdor ko'rsakichlarini aniqlash metodlariga asosan olingan natijalarga ko'ra, ushbu maqolada talabalarning nutq faoliyatini samarali yuritishdagi va ularga sohaga oid atamalarni o'rgatishdagi qiyinchiliklar tipologiyasi, menejment sohasiga oid matnlar ustida ishlash strategiyalari, ayni jarayon uchun integrallashgan mashqlar tizimini ishlab chiqishning psixologik-pedagogik va lingvokulturologik asoslari yoritiladi.

Xullas, ESP talabalari tomonidan sohaga oid lug'atlar va atamalarni o'rganish masalasi amaldagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi, chunki u kasbiy qobiliyat doirasida talabalar tomonidan chet tilidagi kasbiy sohaga oid so'zlar va kontekstlarning to'laonli tushunilishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishidagi talabalarga nafaqat ingliz tili, balki boshqa chet tillariga oid lug'atlarni o'zlashtirishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: menejment ta'lim yo'nalishi, kasbiy kompetentlik, sohaga oid atamalar, tizimli yondashuv, leksik atama, tarjima usuli, o'quv terminologik lug'ati.

KIRISH

Hozirgi kunda menejment ta'lim yo'nalishi talabalariga sohaga oid maxsus lug'atni o'rgatish ingliz tili o'qituvchilari uchun bir nechta qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Chunki, lug'atlar chet tili ta'limida har qanday o'quv dasturining ajralmas qismi bo'lib, ular amalda yaxshi rejalashtirilgan o'quv dasturi asosida muntazam ravishda o'qitilishi kerak. Avvalambor, ESP ta'lim muhiti uchun qanday lug'at tanlanishi, uni talabalarga o'rgatish uchun qanday yondashuv, metod yoki texnologiyadan foydalanishni professor-o'qituvchilar puxta aniqlab olishlari kerak. Xususan, ESP ta'lim muhitida kasbga oid mavzular va ingliz tilini o'qitish jarayonlari o'zaro birlashadi. Bu yondashuv talabalar uchun katta motivatsiya bo'lishi mumkin, chunki bu orqali talabalar o'rganilayotgan chet tili – ingliz tili dars mashg'ulotlarida o'rgangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlarining mutaxassislik sohalarida, ya'ni nofilologik sharoitda samarali qo'llay olishlari mumkin bo'ladi. Vaholanki, ESP grammatika va til tuzilmalarini o'rgatishdan ko'ra ko'proq kontekstdagi tilga e'tibor qaratadi. Yana bir farqli jihat shuki, ESP doirasidagi so'zlar kundalik so'zlashuv nutqidagi umumiy so'zlarga qaraganda murakkabroq deb e'tirof etiladi va talabalar odatda ularni o'rganishga ko'proq vaqt sarflashlari kerak bo'ladi. Bu, ehtimol, ESPda

experimental work led to the identification of the typology of difficulties that students face while engaging in speech activities and learning terms related to management. The article also presents strategies for working on texts related to the field of management and the psychological aspects of developing an integrated exercise system. The pedagogical and linguocultural foundations will be covered as well.

The article also provides useful recommendations for non-philological students who want to improve their foreign language skills in English and any other language.

Key words: management education field, professional competence, field terms, systematic approach, lexical term, translation method, educational terminological dictionary.

soʻz birikmalarining nisbatan turfa xil ekanligi va ularni toʻgʻri birlashtira olish talabalardan koʻproq saʼy-harakat talab qilishi bilan bogʻliq.

Umuman olganda, chet tillarini oʻzlashtirishda lugʻatlar muhim rol oʻynaydi. Togʻrisini aytganda, lugʻat hajmi matnni tushunishning asosiy omilidir [Lü et al., 2015] va u talabalarining umumiy til bilimiga sezilarli darajada taʼsir oʻtkazadi [Yuksel & Kavanoz, 2010]. Oʻz navbatida, tildagi soʻzlarning yigʻindisi lugʻat tarkibini hosil qiladi. Ogʻzaki muloqotning yetakchi komponenti sifatida lugʻat nutqda grammatika va fonetika bilan oʻzaro bogʻliq holda shakllanib boradi. Ingliz tili dars mashgʻulotlarida oʻquv lugʻatlari bilan ishlash talabalarining soʻz boyligini boyitishga qaratiladi. Bu ularning umumiy rivojlanishining belgilaridan biri sifatida ingliz tilidagi lugʻat boyligining ham sezilarli tarzda oshib borishini taʼminlaydi. Lugʻatlar bilan ishlash talabalarida soʻzlarni mustaqil va ijodiy tarzda izlashga boʻlgan ehtiyojni oshirib, ularda oʻrganilayotgan chet tilining leksik boyligi haqidagi maʼlumotlarni sezilarli darajada kengaytiradi [Sattarova, 2021; 423]. Bundan tashqari, lugʻat boyligini oshirish ayrim talabalar uchun turli matnlarni tushunish nuqtayi nazaridan matnlarni [Rydland et al., 2012] oʻqib tushunishda ham foydali boʻla oladi [Lesaux et al., 2010]. Jumladan, tadqiqotlardan maʼlumki, lugʻatlar oʻqib tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishga koʻmak beradi. Zero, soʻz boyligi past boʻlgan talabalarining tushunish darajasi past boʻladi, qoniqarli yoki yuqori darajadagi soʻz boyligiga ega boʻlgan talabalar esa bu borada nisbatan yaxshiroq koʻrsatkichlar qayd etishlari mumkin boʻladi.

Chet tillarini oʻqitish metodikasi boʻyicha xorijiy nashrlarda faol, passiv va potensial leksik zaxirani shakllantirish uchun maqbul lugʻatlarni tanlash bilan bogʻliq muammolarni hal qilish yoʻllari koʻrib chiqiladi, lekin leksik mashqlar majmuasini rivojlantirishga qaratilgan va nutq faoliyatining har xil turlari boʻyicha leksik koʻnikmalarni takomillashtirish masalalari yetarlicha oʻrganilmagan. Qolaversa, bugungi kunda chet tillarini oʻrganuvchilarning ehtiyojlari izchil va tizimli ravishda taʼminlangan taʼlim jarayonini samarali tashkil etish foydasiga uzoq vaqtlardan beri soha mutaxassislari orasida keng tarqalgan va hamma uchun maʼlum boʻlgan chet tillarini (masalan, umumiy ingliz tilini) oʻqitish metodikasidan voz kechish tendensiyasi kuzatilmoqda. Misol uchun, 1990-yilda J.S. Chall boshchiligida olib borilgan klassik tadqiqot shuni koʻrsatdiki, lugʻat boyligi past boʻlgan oʻquvchilar 4-sinfgacha oʻqib tushunish sinovidagi umumiy ballarini kutilgan darajada saqlab qolishga muvaffaq boʻlishdi, ammo soʻzlarni tanib olish va soʻz maʼnosini tushunish boʻyicha oʻrtacha ballari soʻzlar mavhum, texnik va adabiy boʻlib qolgani sayin pasayib ketdi. Soʻzni tanib olish va soʻz maʼnosini tushunishda pasayish davom etdi va 7-sinfga kelib, soʻz maʼnosini tushunishga tegishli ballar sinf darajasidan deyarli uch yil ortga qaytdi va oʻrtacha oʻqishni tushunish deyarli bir yil ortda ekanligini qayd etdi. Ijobiy koʻrsatkich qayd etayotgan oʻquvchilarning holatini tadqiqotda ifodalash uchun Janna Chall “toʻrtinchi darajali pasayish” atamasini kiritdi [Chall et al., 1990; 134]. Mazkur muammoga yechim topish boʻyicha olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlarga koʻra, til oʻrganuvchilarning soʻz boyliklari – lugʻatni rivojlantirish va ulardagi boʻshliqni toʻldirishning yagona tadqiqotga asoslangan usuli yoʻq, degan xulosaga kelindi. Shu bilan birga, tahlillar natijasi shuni koʻrsatdiki, sohaga oid

lugʻatni oʻrgatishning *bilvosita* (tasodifiy) va *toʻgʻridan-toʻgʻri* (qasddan) usullaridan foydalanish ijobiy natijalarga erishishga zamin yaratishi mumkin:

A. *Tasodifiy usulda lugʻatni oʻrganish*. Aksariyat talabalar lugʻat boyligini tasodifan uyda va maktabda soʻzlarga bilvosita taʼsir qilish orqali – tinglash va gapirish, ularga ovoz chiqarib oʻqiladigan kitoblarni tinglash va mustaqil ravishda muntazam oʻqish orqali egallaydi. Oʻqish uchun ajratilgan matn hajmi uzoq muddatli soʻz boyligini rivojlantirishda muhimdir [Cunningham & Stanovich, 1998; 367].

B. *Soʻz boyligini maqsadli oʻrganish*. Talabalarga ataylab soʻz boyligini oʻrganish usullarini ham oʻrgatish kerak. Maykl Greyvsning fikriga koʻra, maqsadli lugʻatni muvaffaqiyatli tarzda oʻrgatish koʻrsatmalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- ushbu soʻzlarni oʻz ichiga olgan matnlarni tushunishni qoʻllab-quvvatlash uchun maxsus soʻzlarni oʻrgatish (tayanch koʻrsatma);

- talabalar mustaqil tarzda foydalanishlari mumkin boʻlgan soʻzlarni oʻrganish strategiyalarini oʻrgatish;

- soʻzlarni toʻlaqonli anglab yetishni rivojlantirishga koʻmaklashish va talabalarni yangi soʻzlarni oʻrganishda ragʻbatlantirish hamda jalb qilish uchun turli soʻz oʻyinlaridan foydalanish [Graves et al., 2008].

Chet tillarini oʻqitishning umumbashariy maqsadini amalga oshirishda oʻrganilayotgan til orqali talabalarning foydali hayotiy maʼlumotlar va til haqidagi yangi oddiy maʼlumotlarni samarali tarzda oʻzlashtirishlari koʻzda tutiladi. Bunga esa talabaning umumiy saviyasini oshirish, oʻrganilayotgan til va til vakillarining madaniyati toʻgʻrisida yangi bilimlarni olish, muloqot madaniyatini oshirish, aqliy ish usullarini qoʻllash, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Vaholanki, chet tilining kommunikativ kompetensiyasining leksik komponentini shakllantirish mazkur fandagi eng muhim vazifalardan biridir. Aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, leksik kompetensiya “tilning lugʻat tarkibini, jumladan, leksik va grammatik elementlarni bilish va ulardan nutqda foydalana olish” degan maʼnoni anglatadi.

Umumjahon taʼlimning obyekti uchta: lingvistik hodisa, unga oid tushuncha yoki oddiy qoida, eng muhimi, chet tilidagi nutqning mazmuni. Bu esa soʻz boyligini egallash yordamida erishilgan barcha koʻnikmalarni rivojlantirishga yordam beradi [Alharbi, 2015; 116]. Natijada talabalar oʻzlari tanlagan yoʻnalish boʻyicha bilimlarini oshirish, yaʼni muayyan mutaxassislik fanlarini chuqur va mukammal oʻzlashtirish imkoniyatiga ega boʻlishmoqda. Shu birga, tashqi omillarga xorijiy tillarni oʻrganishda, ayniqsa lugʻatni oʻrganishda alohida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiqdir [Collentine, 2004]. Vaholanki, talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlari ularning chet tillarni oʻrganishdagi motivatsiyasi va oʻzlashtirish samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shunday qilib, biz oʻz ilmiy ishimiz bilan fandagi hissamizni quyidagi *maqsadlar* va *vazifalarni* puxta bajarish orqali qoʻshishni belgilab oldik:

- sohaga oid lugʻat(lar)ni samarali oʻzlashtirishning sodda va oson usullarini aniqlash;

- auditoriyada nofilologik taʼlim sharoitiga mos muhitni yaratish va ESPga oid lugʻat tarkibini oʻrgatishda qiziqarli dars mashgʻulotlarini tashkil etish;

- ayni jarayonda talabalarning ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan motivatsiyalarini

muntazam tarzda oshirib borish;

– ESPga oid leksik atamalar va soʻz boyligini samarali oʻzlashtirish uchun turli xil faoliyat turlari, vazifalar va mashqlar tizimini yaratish.

Bizga maʼlumki, ingliz tilini oʻqitishdan asosiy maqsad talabanning oʻsha tilda bemalol gapira olishga oʻrgatishdir. Menejment yoʻnalishida taʼlim olayotgan talabalar uchun boʻlsa chet tili amaliy maqsad hisoblanib, unda talabalarni shu tilda toʻgʻri va samarali muomala qila olishga oʻrgatishda soʻz boyligining puxta egallanishi dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, tildagi soʻz boyliklarni egallamay turib, na tinglab tushunish, na gapirish yoki yozish koʻnikmalarini puxta oʻzlashtirish mumkin. Jumladan, tildagi leksikani oʻrganish talabalarning dunyo qarashlarini kengaytiradi, shu sohadagi bilimlarini oshiradi. Bundan tashqari, hozircha menejment taʼlim yoʻnalishida taʼlim olayotgan talabalarga ingliz tilini oʻqitish metodikasida yuqorida tilga olingan holatlar boʻyicha chora-tadbirlar yaxshi yoʻlga qoʻyilmagan, shuning uchun ham biz nofilologik oliy taʼlim muassasalarida ingliz tili darslarida talabalarga sohaga oid atamalarni oʻrgatish ustida tadqiqot olib borish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri, degan qarorga keldik. Shu bilan birga, tadqiqot ishimizning dolzarbligini quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

a) “nutq – muloqot – kasb – madaniyat” oʻzaro bogʻliqligida chet til taʼlimi oʻrining asoslanmagan;

b) menejment sohasiga oid terminologiyani oʻrgatishning yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

d) menejment taʼlim yoʻnalishida chet til kasbiy nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar tipologiyasi talab darajasida ilmiy jihatdan oʻrganilmagan;

e) menejment yoʻnalishida til taʼlimini kasbga yoʻnaltirilgan holda tashkil etish orqali boʻlajak mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Binobarin, kasbga yoʻnaltirilgan taʼlimda autentik materiallar asosida talabalarning sotsiomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish nemis tili materiali misolida ochib berilgan [Kuchkarova, 2024]. Lugʻat ESP yoʻnalishining ajralmas qismi boʻlib, talabalar oʻz taʼlim sohasiga xos boʻlgan va tez-tez uchraydigan atamalarning izchil toʻplamini yaratib olishlari juda muhimdir. Kasbga oid sohaga atama, leksik, frazeologik soʻz va soʻz birikma lugʻatini oʻrganish anʼanaviy ravishda zerikarli deb eʼtirof etiladi, chunki bu holat talabalardan nisbatan koʻproq vaqt va sabr-toqatni talab qiladigan uzoq jarayondir [Grynyuk, 2016]. Hozirgi kunda nofilologik oliy oʻquv yurti talabalari koʻpincha nima uchun kasbga oid soʻzlarni oʻrganish kerakligini soʻrashadi, lekin ular kerak boʻlganda ularni, albattar, mobil qurilmalari orqali osonlikcha qidirib topishlari mumkin. Umuman olganda, bu sohada lugʻatlarni yaratish zaruratining oddiy va mantiqli sabablaridan biri – bu qulaylikdir. Xususan, ingliz tilida olib boriladigan suhbatlar davomida, yaʼni suhbatdoshiga fikr bildirish uchun soʻzlovchi har besh soniyada soʻzlarni qidirish yoki tarjima dasturlarini tekshirish kabi ortiqcha xatti-harakatlarni davom ettira olmaydi [Karomatova, 2017].

Lugʻat soʻzlarning maʼnolarini bir tildan ikkinchi tilga tushuntirish, talqin qilish

yoki tarjima qilishdan iborat bo'lgan so'zlar to'plamidir (odatda alifbo tartibida). Zamonaviy dunyoda lug'atlarning o'rni kattadir. Barcha lug'atlarning umumiy vazifasi bilimlarni aniqlash, tizimlashtirish, to'plash va saqlash hisoblanadi. Ingliz tilida turli xil lug'atlar mavjud: tarjima, monolingvistik, zamonaviy, texnik va maxsus lug'atlar. Ingliz tili darslarida siz ikki tilli tarjima lug'atlari bilan ishlashning asosiy tamoyillari bilan tanisha boshlaysiz, ularsiz hech qanday tilni o'rganish mumkin emas. Lug'at bilan ishlay olish, ayniqsa, matnlarni o'qish va tarjima qilishda juda muhimdir. O'z navbatida, lug'atdan kerakli leksik birlikni yetarlicha tez izlash qobiliyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Z.Karomatova bergan ma'lumotlarga ko'ra, har bir ingliz tili o'qituvchisining vazifasi talabalarda ham darsda, ham mustaqil topshiriqlarni bajarishda doimiy ravishda lug'atlarga murojaat qilish ko'nikmalarini shakllantirib borishdan iborat [Karomatova, 2017]. Shunga qaramay, amalda lug'atlar hali ham majburiy o'quv materiali sifatida shoshilinch zaruratga aylangani yo'q. Lug'at bilan ishlash o'zlashtirilgan lug'atni tizimlashtirish va undan og'zaki hamda yozma nutqda faol foydalanishga qaratilgan bo'lishi kerak. Qolaversa, lug'atlar bilan ishlashda ularning turlari ham e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muhim jihat hisoblanadi.

Shuni esda tutish kerakki, amaldagi darsliklar lug'at bilan ishlash bilan bog'liq vazifalarni ilgari surishlari kerak. Taklif etilayotgan vazifalar darsda va til bo'yicha mustaqil ish jarayonida lug'atlardan foydalanishning barcha mumkin bo'lgan holatlarini qamrab ololmaydi. Lug'atlar uchun topshiriq va mashqlar juda xilma-xil bo'lishi mumkin, ammo ayni jabhada lug'atdan to'g'ri foydalanish qobiliyati murakkab, ko'p komponentli mahorat ekanligini va uni bosqichma-bosqich va ketma-ket shakllantirish kerakligini yodda tutish lozim. Natijada talabalar nafaqat lug'atlarning har xil turlari bilan tanishadilar, balki ularni shakllantirishning murakkab tizimida qanday harakat qilishni, til va nutq xatolaridan qochish yo'llarini, bu orqali esa o'z nutqlarini talab darajasida tuzatishni o'rganib oladilar. Zero, lug'atdan unumli foydalanish qobiliyati o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik ko'rish va til yetukligini namoyon qiluvchi asosiy mezonlardan hisoblanib, u til savodxonligining garovi bo'la oladi [Van den Broek et al., 2022].

Shu o'rinda qayd etish joizki, talabalarga mustaqil tarzda sohaga oid so'zlarni o'rganish bo'yicha keng ko'lamli strategiyalar kerak. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lug'atlar bilan ishlashni o'rgatish talabalarni so'z ma'nolari, so'zlar o'rtasidagi munosabatlar va turli vaziyatlarda so'zlardan qanday foydalanish bo'yicha faol fikr yuritishga jalb etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shunday xarakterdagi boy va chuqur ko'rsatmalar talabalar tomonidan so'zlarning tushunilishiga bevosita ijobiy ta'sir qilishi mumkin [Graves, 2006; McKeown & Beck, 2004]. Quyida mazkur masalaga doir bir qator muhim strategiyalarni keltirib o'tamiz:

■ *Talabalar uchun qulay ta'riflar.* Yangi so'zning ma'nosini talabalarga shunchaki lug'at ta'rifini berishdan ko'ra uni turli sohaga oid kontekstlar doirasida tushuntirish kerak – bu talabalar uchun tushunilishi qiyin jarayon bo'lishi mumkin. Masalan, Izabel Bekning so'zlariga ko'ra, talabalar uchun qulay tushuntirishlar yoki ta'riflarni ishlab chiqishda ikkita asosiy tamoyilga amal qilish kerak:

– soʻz va uning odatda qanday ishlatilishini tavsiflash;

– maʼnoni kundalik tilda – talaba uchun tushunarli va mazmunli tildan foydalangan holda tushuntirish [McKeown & Beck, 2004].

Baʼzida soʻzning tabiiy konteksti (matn yoki adabiyotda) uning toʻliq maʼnosini ochib berishga oid maʼlumot taqdim etmaydi yoki bunga xizmat qilmaydi. Shu bilan birga, soʻzning maʼnosini ochib berish boʻyicha muhim koʻrsatmalar beruvchi oʻquv kontekstlarini ataylab yaratish va rivojlantirish ham foydalidir. Ular odatda oʻqituvchilar tomonidan yaratiladi, lekin baʼzida ularni tijorat maqsadida qoʻllaniluvchi oʻquv dasturlarida topish mumkin [Bojovic, 2006; 566].

■ *Kontekst ichidagi soʻzlarni aniqlash.* Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, kontekstda soʻzlar va ularni tushunishga doir izohlar kiritilganda, til oʻrganuvchilarning bu soʻzlar haqidagi bilimlari ortadi [Biemiller & Boote, 2006] va bu orqali soʻz maʼnolari yaxshiroq oʻrganiladi. Agar notanish soʻz kontekstni toʻlaonli tushunishga toʻsqinlik qilsa, soʻzning maʼnosini aniqlab olish uchun eng maqbul vaqt matnda mazkur soʻzga duch kelingan payt boʻlishi mumkin [Stahl & Fairbanks, 1986].

■ *Kontekst koʻrsatmalaridan foydalanish.* Talabalar oʻrganilayotgan matnga diqqat bilan qarash orqali soʻzlarning maʼnolarini aniqlash maqsadida kontekstual tahlil usulidan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, talabalar ayni jarayonlarda juda koʻp sonli soʻzlarga duch kelishganligi sababli, baʼzi tadqiqotchilar kontekstga oid koʻrsatmalardan foydalanish qobiliyatining dastlabki bosqichda oz boʻlsa-da yaxshilanishi talabalarda soʻz boyligining uzoq muddatli oʻsishiga olib kelishi mumkinligiga ishonch bildirishdi [Nagy et al., 1985; Nagy et al., 1987; Swanborn & Glopper, 1999; 911].

■ *Soʻzlarni ijodiy usulda tasvirlash.* Aksariyat talabalar uchun notanish soʻzlarni ramziy buyumlar bilan bogʻlovchi tezkor eskizlarni yaratish orqali ularning maʼnolarini eslab qolish osonroqdir. Umuman olganda, talabalar har bir soʻzni yangi yoki tanish kontekst doirasida qoʻllashi mumkin, shu bilan birga, ulardan eskizlarni yuqori mahorat darajasida yaratish ham talab qilinmaydi. Muhimi shuki, eskizlar mantiqiy boʻlishi va talabalarga soʻzlarning maʼnolarini ochib berishda koʻmakchi boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

■ *Soʻzlarni maqsadli qoʻllash.* Soʻzlarni maqsadli qoʻllash soʻz maʼnolarini yanada chuqur oʻrganishda boshqa kontekstlardan ham foydalanishni ilgari suradi. Qolaversa, talabalarga soʻzlarni bu usulda oʻz tajribalarida qoʻllash taklif qilinganda, ular har bir soʻzning maʼnosini oʻz bilim darajalari doirasida tushunish yoʻlida yana bir imkoniyatga ega boʻlishadi. Natijada bu har bir soʻzning maʼnosini chuqur qayta ishlashga imkoniyat yaratadi.

■ *Soʻz boʻlaklarini tahlil qilish.* Soʻz boʻlaklarini tahlil qilish qobiliyati talabalar nomaʼlum lugʻat tarkibiga duch kelganlarida yordam berishni anglatadi. Agar talabalar ildiz soʻzlar va affikslarning maʼnolarini bilsalar, ular tarkibida shu soʻz boʻlaklari boʻlgan soʻzlarni tushunish ehtimollari yuqori boʻladi. Soʻz boʻlaklari boʻyicha aniq koʻrsatmalar mazkur boʻlaklarning maʼnolarini oʻrgatish, maʼno hosil qilish uchun soʻzlarni boʻlaklarga ajratish va ularni qayta yigʻishni oʻz ichiga oladi [Baumann et al., 2003].

■ *Semantik xaritalash.* Semantik xaritalar talabalarga soʻzlar orasidagi bogʻlanishlarni rivojlantirishga yordam beradi va soʻz boyligini oʻrganish mahoratini oshiradi [Baumann et al., 2003; Heimlich & Pittleman, 1986]. Semantik xaritalash talabalarning sohaga oid soʻzlarni ularning maʼno jihatlariga koʻra farqlay olish, turli boʻlaklarni oʻzaro qoʻshish orqali yangi maʼnolar hosil qila olish va ularni turli kontekstlarda muvaffaqiyatli qoʻllay olish imkoniyatlariga ega boʻlishlariga zamin yaratadi.

■ *Soʻzlarni anglash.* Bu soʻzlarga qiziqishni oshiradi va talabalarning barcha til koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, soʻzlarni yaxshi anglaydigan talabalar ularni sohaga oid kontekstlarda mahorat bilan qoʻllay oladilar, chunki ular soʻz maʼnolarining nozik jihatlaridan boxabar boʻlishadi. Bundan tashqari, bu ularning tillarni oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirib, nutqda soʻz oʻyinlarini olib bora olish, soʻzlarning kelib chiqishi va tarixini oʻrganish imkoniyatlariga ega boʻlishadi [Anderson & Nagy, 1992; Graves & Watts-Taffe, 2002].

Qoida tariqasida darslik va oʻquv qoʻllanmalarida oʻrganiladigan lugʻat har bir boʻlimga alohida, yaʼni mavzu doirasida joylashtiriladi yoki uning oxirida beriladi. Bu lugʻatlar roʻyxat shaklida tuziladi va odatda alifbo tartibida yoki matnlarda qoʻllanish tartibida taqdim etiladi. Bunday roʻyxatlar faqat oʻzlashtirilishi kerak boʻlgan lugʻatlar hajmi hamda tarkibini oʻzida aks ettiradi va tor doirada koʻzda tutilgan funksiyalarni bajaradi, lekin bu lugʻatning samarali va boshqariladigan shakllanish xususiyatiga taalluqli boʻlgan taʼlim jarayonining ehtiyojlarini toʻlaqonli qondira olmaydi [Brumft & Johnson, 2016; 243].

Kasbga oid atamalarni ingliz tilida oʻzlashtirish menejment, iqtisodiyot va moliya taʼlim yoʻnalishi talabalarining oʻz ustlarida mustaqil ishlash malakalarini shakllantiradi va ularning soʻz boyligini oshirishga xizmat qiladi:

- a) ingliz tilida kasbiy sohaga oid atamalarni oʻrganish va oʻrgatish;
- b) menejment taʼlim yoʻnalishiga oid atama va izohli lugʻatlarni oʻrgatishni taʼminlovchi oʻquv qoʻllanmalarni yetarli darajada yaratish;
- d) sohaga oid atamalar va matnlar metodikasini ishlab chiqishni ilmiy jihatdan oʻrganish;

e) oʻrganilayotgan chet tilida ravon gapirish uchun talabalar tomonidan mutaxassislikka oid atamalar texnologiyasi oʻrnining oʻrganilishi [Reyes et al., 2018].


Xususan, mazkur masalani hal qilish uchun ESP yoʻnalishidagi oʻquv jarayonida aktiv va passiv leksik atamalar, terminologiyani oʻrgatish metodikasini puxta ishlab chiqish kerak [Dong et al., 2018]. Albatta, shu oʻrinda chet tilining terminologik leksikasini oʻrgatishda sodir boʻlayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun eng birinchi navbatda nima(lar) qilish zarur, degan tabiiy savol tugʻiladi. Nofilologik oliy oʻquv yurti talabalarining nutqiy malakalarini shakllantirishni jadallashtirish (intensifikatsiya) va samaradorligini oshirish (optimizatsiya) maqsadida ularga eng kerakli (zaruriylik va yetarlilik tamoyillariga koʻra) atamalar oʻrgatiladi (yaʼni ularsiz murakkab til birliklarini tushuntirishning iloji yoʻq); shu bilan birga, terminologiya ilmiy sistema tarzida beriladi [Sattarova, 2021]. Qolaversa, oʻqituvchilar talabalarni

kasbiy sohaga oid atamalarni o'rgatishda quyidagilarga ahamiyat qaratmoqlari lozim:

- til ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvni bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- menejment ta'lim yo'nalishi uchun sohaga oid atamalarning yoritilishi hamda o'rgatilishini ilmiy metodik jihatdan takomillashtirish;
- nutq faoliyat turlarini yuritishdagi va sohaga oid atamalarni o'rgatishdagi qiyinchiliklar tipologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- menejment sohasiga oid matnlar ustida ishlash metodikasi va texnologiyasini ko'rsatib berish.

Bu chora-tadbirlarning ahamiyati shundan iboratki, nofilologik ta'lim yo'nalishlarida til o'qitish mazmuni va metodik asoslarini takomillashtirish, menejment sohasiga oid terminologik lug'atlar tuzish va ulardan foydalanishning metodikasini taqdim etish, shu bilan birga, talabalar tomonidan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan chet tili kasbiy muloqot madaniyati uchun ingliz tilidagi faol so'z va frazeologiyalarini saralash strategiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, sohaga oid atamalarni o'rgatishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishning amaliy usullari va ilmiy-nazariy tavsiyalarini bayon qilishdir [Murtazayeva, 2023; 14]. Ayni masalalar bo'yicha talabalarda kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini shakllantirish dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi va ular quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi (1-rasmga qarang):

1-rasm. Kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasi




- Tashkilot ichida va tashqarisida aloqalar hamda munosabatlar o'rnatish kompetensiyasi
- Samarali axborot almashish kompetensiyasi
- O'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq hamda mantiqiy ifodalash kompetensiyasi
- Ish faoliyatiga doir tushuntirishlar va tavsiyalar olish uchun rahbariyatga murojaat qilish kompetensiyasi
- Fuqoralariga maslahatlar berish va tushuntirishlar berish, ariza hamda murojaatlarga og'zaki va yozma javoblar tayyorlash kompetensiyasi
- Muzokoralar olib borish hamda o'z nuqtayi nazari va qarashlarini asoslash kompetensiyasi
- Jamoada nizoli holatlarning oldini olish yoki ularni bartaraf qila olish kompetensiyasi
- Kasbiy muloqotning murakkab vaziyatlarida his-tuyg'ularni boshqara olish kompetensiyasi

TADQIQOT METODLARI

Texnikaviy, kasbiy-texnikaviy, professional va oliy ta'lim tizimida amaliy ko'nikma-malakalar va kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish va

takomillashtirishga alohida e'tibor talab qiladigan murakkab jarayon sifatida qaralib, bu boradagi sa'y-harakatlarni ta'lim islohotlari orqali amalga oshirish zarurligi ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan asoslangandir [Nabiyev & Bayzakov, 2021; 150]. Xususan, biz tadqiqotimiz davomida sohaga oid atamalarni qo'llash ko'nikma-malakalarini rivojlantirishning uch bosqichli tizimini ishlab chiqdik. Ushbu tizim atamalarni talabalarning nafaol leksikasidan faol leksikasiga bosqichma-bosqich o'tkazib borishga yo'naltirilgan bo'lib, ilk bosqichda talabaning atamalarni o'qituvchi yordamida o'zlashtirishi, ikkinchi bosqichda nutqda mustaqil qo'llay boshlashi, uchinchi bosqichda esa ularni nutq jarayonida erkin qo'llay olish ko'nikma-malakalariga ega bo'lishini ta'minlaydi. Buning uchun har bir bosqichda qo'llanadigan, soddadan murakkabga qarab tuzilgan mashqlar va topshiriqlarni ishlab chiqdik hamda ularni quyidagi turlarga ajratdik (2-rasmga qarang):

2-rasm. Talabalarni sohaga oid atamalar bilan ishlashga o'rgatishning uch bosqichli tizimi



Taklif etilayotgan tizim ilk, o'rta va yuqori bosqichlardan iborat bo'lib, ularda qo'llaniladigan mashq va topshiriqlar bir butun yaxlitlikni hosil qilishi kerak. Ma'lumki, nutqning dialogik va monologik shakllari mavjud bo'lib, kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasining qayd etilgan komponentlari nutqning u yoki bu shaklida namyon bo'ladi. Tadqiqot ishida kasbiy monologik va dialogik nutqni o'stirish hamda rivojlantirib borishda ham ushbu bosqichli ketma-ketlikka amal qilish tavsiya etiladi. Vaholanki, kasbiy professional atamalarni tizimli o'zlashtirish shartligi tamoyili – ilmiy-ijodiy, tanqidiy va izchil yondashuvchanlik hamda moslashuvchanlik tamoyili – darslikda keltirilgan hamma dalillar ilmiy asoslangan, ishonchli va aniq bo'lishi, voqea-hodisalarning bog'lanishi esa rivojlanishda yoritilib borishini ilgari suradi. Bunda quyidagilar inobatga olingan:

– menejment ta'lim yo'nalishida, ayniqsa, umumkasbiy fanlar bo'yicha yozilgan yoki kelgusida yaratilishi ko'zda tutilayotgan yangi avlod darsliklari iqtidorli-istedodli o'quvchi-talabalarni ijodiy, tanqidiy va izchil yondashuvlarga, ya'ni ilmiy-ijodiy mazmundagi vazifa-topshiriqlarni bajarishga undashi;

– menejment sohasiga oid so‘zlarni izlash, aniqlash, o‘rganish va o‘rgatishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, ixtirochilik, moslamalarni loyihalash yoki modernizatsiyalash, jarayonlarni mukammallashtirish va shu kabilarga undashi.

Shuningdek, darslikdagi materiallar menejment ta’lim yo‘nalishiga mos holda uzluksiz o‘zgarib turadigan ishlab chiqarish texnika-texnologiyalari sharoitlariga tezda moslashuvchan holda bayon etilishi barobarida innovatsion texnologiyalarning nazariy-amaliy jihatlarini o‘zida aks ettirishi lozim.

Menejment ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan quyi bosqich talabalaridan mazkur masala yuzasidan fikr-mulohazalarini o‘rganish maqsadida anketa-so‘rovnoma metodidan foydalanildi. Anketa-so‘rovnoma tarkibiga savollarni saralashda sohaga oid lug‘atlarning imkoniyatlari va qo‘llanilish vazifalariga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, undan quyidagi savollar o‘rin oldi:

1. Menejment sohasiga oid atamalardan ingliz tilida ma’lumot beruvchi material sifatida nutqda foydalana olasiz?

2. Darsda o‘quv-terminologik lug‘at (bosma va elektron shakllar)ning tarjimasini o‘qib-tushunib samarali foydalana olasiz?

3. Siz o‘z sohangizga oid lug‘atlarni individual tarzda o‘qituvchining ko‘rsatmalarisiz to‘g‘ri tanlay olasiz va foydalana olasiz?

4. Menejment sohasiga oid lug‘atlardan foydalanishda atamalarning grammatik va leksik qonun-qoidalariga ham e’tibor qaratasiz?


5. Menejment sohasiga oid lug‘atlardan foydalanishda atamalarni muayyan mavzular bo‘yicha guruhlariga ajratib o‘rganish sizga qulaylik yaratadi?

NATIJALAR VA MUNOZARA

Talabalar o‘qish orqali lug‘atni o‘rganishganda, ular o‘qib tushunish ko‘nikmalarini ham oshiradilar, shuning uchun ular bu jarayondan ikkita foyda olishadi: lug‘atga oid bilim va o‘qib tushunish ko‘nikmasi. Matnlar turli xil lug‘at tarkiblariga ega bo‘lib, ular talabalar uchun kengroq doiradagi so‘zlarni o‘zlashtirish uchun yaxshiroq va ishonchliroq manba bo‘la oladi. Jumladan, lug‘at dastlab retseptiv tarzda o‘rganiladi, keyin esa uning talabalar tomonidan samarali tarzda o‘rganilishi uchun rivojlantiriladi [Nation, 2001; 312]. So‘rovnoma tahlili natijalariga ko‘ra quyidagi ma’lumotlarni va natijalarini taqdim etishimiz mumkin:


(1)“*Menejmentsohasigaoidatamalardaningliztilidama’lumotberuvchimaterial sifatida nutqda foydalana olasiz?*” – talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari to‘g‘ri yo‘nalishda yoki maqsadlarga muvofiq ravishda rivojlanayotganligini aniqlash va shu orqali o‘zlashtirish samarasiga ta’sir ko‘rsatish shaklining qanchalik darajada yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ldi: 20 nafar (Yaxshi) 20%, 17 nafar (O‘rtacha) 17%, 35 nafar (Yetarlicha) 35% va 28 nafar (Umuman foydalanmayman) 28% (3-rasmga qarang).

3-rasm.



(2) “*Darsda o‘quv-terminologik lug‘at (bosma va elektron shakllar)ning tarjimasini o‘qib-tushunib samarali foydalana olasiz?*” – degan mazmundagi ikkinchi savolga berilgan javoblarning tahlili quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettirdi: 20 nafar (Yaxshi) 20%, 15 nafar (O‘rtacha) 15%, 15 nafar (Yetarlicha) 15% va 50 nafar (Umuman foydalanmayman) 50 %. Bu talabalar har doim ham o‘qituvchilarning ko‘rsatmalariga tayanib qolmasdan, o‘zlarining va boshqa talabalarning yutuqlarini mustaqil ravishda baholay olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi (4-rasmga qarang).


4-rasm.



(3) “*Siz o‘z sohangizga oid lug‘atlarni individual tarzda o‘qituvchining ko‘rsatmalarisiz to‘g‘ri tanlay olasiz va foydalana olasiz?*” – ESP yo‘nalishi talabalarining ingliz tili darslarida va darsdan tashqari holatlarda mustaqil ravishda sohaga oid maxsus lug‘atlardan foydalanishi to‘g‘risidagi savolga olingan javoblar:

24 nafar (Yaxshi) 24%, 17 nafar (O‘rtacha) 17%, 43 nafar (Yetarlicha) 43% va 16 nafar (Umuman foydalanmayman) 16% (5-rasmga qarang). Bundan tashqari, individual tarzda lug‘atlardan foydalanish har qanday sohaga oid mavzu yuzasidan fikr-mulohaza bildirish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning o‘z-o‘zini baholash va o‘z ishlarini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yetaklaydi.


5-rasm.




(4) *“Menejment sohasiga oid lug‘atlardan foydalanishda atamalarining grammatik va leksik qonun-qoidalariga ham e‘tibor qaratasiz?”* – talabalarning sohaga oid atamalarining faqatgina tarjimalari bilan cheklanib qolish o‘rniga ularning matn, ayniqsa, gaplar va so‘z birikmalari (collocation) tarkbida qo‘llanilish jihatlariga e‘tibor qaratishlariga yo‘naltirilgan savolga olingan javoblar: 18 nafar (Yaxshi) 18%, 13 nafar (O‘rtacha) 13%, 27 nafar (Yetarlicha) 27% va 42 nafar (Umuman foydalanmayman) 42% (6-rasmga qarang). Mazkur natijalarga ko‘ra aytishimiz mumkinki, ESP yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning chet tillari, jumladan, ingliz tilini o‘rganishlarida kutilgan natijalarga erishilmayotganligiga yuqoridagi holat – atamalarining faqatgina tarjimalariga e‘tibor qaratilganligi bilan bog‘liqdir.

(5) *“Menejment sohasiga oid lug‘atlardan foydalanishda atamalarni muayyan mavzular bo‘yicha guruhlariga ajratib o‘rganish sizga qulaylik yaratadi?”* – talabalarning sohaga oid mavzular bo‘yicha yozma hamda og‘zaki nutq faoliyati turlarida atamalarni samarali va maqsadli qo‘llay olish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan ushbu savol amaldagi real holat bilan yaqindan tanishishga imkoniyat yaratdi: 15 nafar (Yaxshi) 15%, 17 nafar (O‘rtacha) 17%, 30 nafar (Yetarlicha) 30% va 38 nafar (Umuman foydalanmayman) 38% (7-rasmga qarang). Demak, amaliy dars mashg‘ulotlarida talabalarga sohaga oid atamalarni mavzular bo‘yicha o‘rgatish va bunda bosma va elektron shakllardagi lug‘atlardan foydalanish metodikasi yetarli darajada rivojlantirilmagan. Shu bois ingliz tili o‘qituvchilari tomonidan mazkur jabhaga e‘tibor qaratish har tomonlama dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi.

6-rasm.



7-rasm.



Ushbu natijalardan kelib chiqib quyidagi mulohazalarni ilgari suramiz:

- menejment ta'lim yo'nalishi talabalari uchun kasbiy sohaga oid atamalarni elektron va o'quv-terminologik lug'atiga muvofiq ishlab chiqilgan talablarini ishlab chiqish;
- talabalarning texnikaga oid atamalarni o'rganishlari uchun amaliy ta'lim jarayonlariga mos bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlash;
- talabalar uchun texnikaga oid atamalarni ingliz tilida o'zlashtirishga doir metodik tavsiyalarni ishlab chiqib, ularni amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- ingliz tili darslarida qo'llaniladigan menejment ta'lim yo'nalishiga oid sohaga oid atamalarni ingliz tilida ham ma'lumot beruvchi material sifatida ishlatish, ham

talabalarining soʻz boyligini hamda nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida qoʻllash tizimini yoʻlga qoʻyish.

Shunga koʻra, menejment taʼlim yoʻnalishi talabalarining ingliz tili darslarida kasbiy sohaga oid atamalarni samarali oʻzlashtirishni taʼminlaydigan maxsus oʻquv-terminologik lugʻatlar ishlab chiqish lozim. Bunday yoʻl tutish orqali amalda oʻzbek va rus guruhlar uchun ingliz tilida sohaga oid atamalarni oʻrgatish metodikasida qoʻyilgan quyidagi maqsadlarga erishishimiz mumkin boʻladi:

1. Menejment taʼlim yoʻnalishi talabalar uchun yozilgan kasbiy sohaga oid atamalarni oʻrganish va tahlil qilish.

2. Menejment taʼlim yoʻnalishi talabalarining til tajribasini oʻrganish va oshirish.

3. Ingliz tilida menejment yoʻnalishiga oid sohaga oid atamalar bilan ishlash uchun oʻquv-terminologik lugʻatlar tuzish.

4. Menejment taʼlim yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida sohaga oid atamalarni oʻrgatishning samarali metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish.

XULOSA

Menejment taʼlim yoʻnalishi talabalariga kasbiy sohaga oid atamalarni oʻqitishga qaratilgan tadqiqotimiz quyidagi nazariy xulosalar chiqarish imkonini berdi:

1) menejment sohasiga oid atamalarni oʻrgatishda tizimli yondashuvning oʻzaro munosabatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda taʼlim jarayonini tubdan qayta koʻrib chiqish;

2) tadqiqot va tahlillar til va madaniyatni fanlararo aloqadorlikda oʻrgatish, talabalarining oʻz-oʻzini tarbiyalash, kerakli material va maʼlumotlarni mustaqil izlash, topish va qoʻllash qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlikni rivojlantirishga asoslanishi kerakligi;

3) tildagi leksikani oʻrganishda muayyan lugʻat turlarining ham katta ahamiyat kasb etishi: etimologik, soʻz yasovchi, orfografik, frazeologik, sinonimlar, antonim va omonimlar va boshq.;

4) ESP yoʻnalishi doirasida oʻzbek leksikasini boyitishga keng miqyosda eʼtibor qaratish;

5) menejment taʼlim yoʻnalishiga oid atamalarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarda talabalarni leksika bilan mustaqil ishlash metodikasi bilan taʼminlash;

6) sohaga oid atamalarni ingliz tilida oʻrgatish, yaʼni talabalarga mazkur atamalarning talaffuzi, shakli (yozilishi) va tarjimasini ham oʻrgatish;

7) menejment taʼlim yoʻnalishi talabalarida kasbiy sohaga oid atamalarni tahlil qilish malakasini shakllantirish;

8) ushbu modelning asosiy vazifasi sifatida talabalarining mustaqil tarzda bilim olishlari va ayni jarayon uchun ularning amaliy oʻquv faoliyatlarini rivojlantirishda kerakli boʻlgan shart-sharoitni yaratish;

9) ingliz tilida texnikaga oid atamalarni oʻzlashtirishning nazariy va amaliy tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek, bu boʻyicha birlamchi izohli lugʻatlarni yaratish;

10) oliy ta'lim muassasalarida texnik atamalarning elektron va o'quv-terminologik lug'atlar uchun maxsus talablarni ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alharbi, H.A. (2015). Improving students' English speaking proficiency in Saudi public schools. *International Journal of Instruction*, 8, 105–116.
2. Anderson, R.C., & Nagy, W.E. (1992). The vocabulary conundrum. *American Educator*, 16(4), 14–18.
3. Baumann, J.F., Edwards, E.C., Boland, E.M. (2003). Vocabulary tricks: Effects of instruction in morphology and context on fifth-grade students' ability to derive and infer word meanings. *American Educational Research Journal*, 40(2), 447–494.
4. Biemiller, A., & Boote, C. (2006). An effective method for building meaning vocabulary in primary grades. *Journal of Educational Psychology*, 98(1), 44–62. <https://doi.org/10.1037/0022-0663.98.1.44>.
5. Bojović, M. (2006). Teaching foreign language for specific purposes: Teacher development. *31st Annual Association of Teacher Education in Europe (ATEE) Conference* (pp. 487–493). Belgium: Brussels.
6. Brumfit, C.J., & Johnson, K. (1979). *The communicative approach to language teaching*. Oxford: Oxford University Press.
7. Dong, Y., Hu, J., Wu, X. (2018). The evidence of different learning environment learning effects on vocabulary size and reading comprehension. *Frontiers in Psychology*, 9, 1914. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2018.01914>.
8. Graves, M.F., & Watts-Taffe, S.M. (2002). The place of word consciousness in a research-based vocabulary program. In A.E. Farstrup & S.J. Samuels (Eds.), *What research has to say about reading instruction* (3rd ed., pp. 140–165). Newark, DE: International Reading Association.
9. Graves, F.M., Genishi, C., & Alvermann, D.E. (2008). *Teaching individual words: One size does not fit all*. New York: Teachers College Press.
10. Grynuk, S. (2016). Foreign language teaching for specific purposes: Basic aspects. *Scientific Journal "ScienceRise"*, 3/5(20), 18–23. <https://doi.org/10.15587/2313-8416.2016.64803>.
11. Heimlich, J.E., & Pittelman, S.D. (1986). *Semantic mapping: Classroom applications*. Newark, DE: International Reading Association.
12. Cunningham, A.E., & Stanovich, K.E. (1998). The impact of print exposure on word recognition. In J.L. Metsala & L.C. Ehri (Eds.), *Word recognition in beginning literacy* (pp. 235–262). USA: Lawrence Erlbaum Associates Publishers.
13. Karomatova, Z.F. (2017). Rabota so slovarem – effektivnyy sposob izucheniya angliyskogo yazyka. *Dostizheniya nauki i obrazovaniya*, 4(17), 81–82.
14. Collentine, J. (2004). The effects of learning contexts on morphosyntactic and lexical development. *Studies in Second Language Acquisition*, 26, 227–248.
15. Kuchkarova, N. (2024). Development of socio-cultural competence in students based on authentic materials. *News of UzMU Journal*, 1(1.3.1).
16. Lesaux, N.K., Crosson, A.C., Kieffer, M.J., & Pierce, M. (2010). Uneven profiles: language minority learners' word reading, vocabulary, and reading comprehension skills. *Journal of Applied Developmental Psychology*, 31, 475–483. <https://doi.org/10.1016/j.appdev.2010.09.004>.
17. Lü, C., Koda, K., Zhang, D., & Zhang, Y. (2015). Effects of semantic radical properties on character meaning extraction and inference among learners of Chinese as a foreign language. *Writing Systems Research*, 7, 169–185. <https://doi.org/10.1080/17586801.2014.955076>.
18. McKeown, M.G., & Beck, I.L. (2004). Direct and rich vocabulary instruction. In J.F. Baumann & E.J. Kame'enui (Eds.), *Vocabulary instruction* (pp. 13–27). New York: Guilford Press.

19. Murtazayeva, A. (2023). Nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda lingvodidaktikaning ahamiyati. *"Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metodik jurnali*, 12, 14-15.
20. Nabiyev, A., & Bayzakov, A. (2021). Calculation of a bar for strength and rigidity based on principle of harmonization of traditional and personally-oriented education methods. *European Journal of Life Safety and Stability*, 143–150.
21. Nagy, W.E., Herman, P.A., & Anderson, R.C. (1985). Learning words from context. *Reading Research Quarterly*, 20(2), 233–253. <https://doi.org/10.2307/747758>.
22. Nagy, W.E., Anderson, R.C., & Herman, P.A. (1987). Learning word meanings from context during normal reading. *American Educational Research Journal*, 24(2), 237–270. <https://doi.org/10.3102/00028312024002237>.
23. Nation, I.S.P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9781139524759>.
24. Reyes, M., & Cruz, N. (2018). Strategies to learn vocabulary through the reading skill at elementary English level of the B.A in English. *Researchgate.net*.
25. Rydland, V., Aukrust, V.G., & Fulland, H. (2012). How word decoding, vocabulary and prior topic knowledge predict reading comprehension. A study of language-minority students in Norwegian fifth grade classroom. *Reading and Writing*, 25, 465–482. <https://doi.org/10.1007/s11145-010-9279-2>.
26. Sattarova, N.A. (2021). Using ESP vocabulary teaching and learning foreign languages in ESP classes. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(5), 480–485.
27. Stahl, S.A., & Fairbanks, M.M. (1986). The effects of vocabulary instruction: A model-based meta-analysis. *Review of Educational Research*, 56(1), 72–110.
28. Swanborn, M.S.L., & de Glopper, K. (1999). Incidental word learning while reading: A meta-analysis. *Review of Educational Research*, 69(3), 261–285. <https://doi.org/10.3102/00346543069003261>.
29. Van den Broek, G.S.E., Wesseling, E., Huijssen, L. (2022). Vocabulary learning during reading: Benefits of contextual inferences versus retrieval opportunities. *Cognitive Science*, 46, e13135. <https://doi.org/10.1111/cogs.13135>.
30. Yuksel, H.G., & Kavanoz, S. (2010). Does vocabulary knowledge distinguish among proficiency levels of turkish university students?. *The International Journal of Learning*, 17, 513–521. <https://doi.org/10.18848/1447-9494/CGP/v17i05/47071>.
31. Chall, J.S., Jacobs, V.A., & Baldwin, L.E. (1990). *The reading crisis: Why poor children fall behind*. USA: Harvard University Press. <https://doi.org/10.2307/j.ctvjhzs0b>.

REFERENCES

1. Alharbi, H.A. (2015). Improving students' English speaking proficiency in Saudi public schools. *International Journal of Instruction*, 8, 105–116.
2. Anderson, R.C., & Nagy, W.E. (1992). The vocabulary conundrum. *American Educator*, 16(4), 14–18.
3. Baumann, J.F., Edwards, E.C., Boland, E.M. (2003). Vocabulary tricks: Effects of instruction in morphology and context on fifth-grade students' ability to derive and infer word meanings. *American Educational Research Journal*, 40(2), 447–494.
4. Biemiller, A., & Boote, C. (2006). An effective method for building meaning vocabulary in primary grades. *Journal of Educational Psychology*, 98(1), 44–62. <https://doi.org/10.1037/0022-0663.98.1.44>.
5. Bojović, M. (2006). Teaching foreign language for specific purposes: Teacher development. *31st Annual Association of Teacher Education in Europe (ATEE) Conference* (pp. 487–493). Belgium: Brussels.
6. Brumfit, C.J., & Johnson, K. (1979). *The communicative approach to language teaching*. Oxford: Oxford University Press.
7. Chall, J.S., Jacobs, V.A., & Baldwin, L.E. (1990). *The reading crisis: Why poor children*

- fall behind*. USA: Harvard University Press. <https://doi.org/10.2307/j.ctvjhzs0b>.
8. Collentine, J. (2004). The effects of learning contexts on morphosyntactic and lexical development. *Studies in Second Language Acquisition*, 26, 227–248.
 9. Cunningham, A.E., & Stanovich, K.E. (1998). The impact of print exposure on word recognition. In J.L. Metsala & L.C. Ehri (Eds.), *Word recognition in beginning literacy* (pp. 235–262). USA: Lawrence Erlbaum Associates Publishers.
 10. Dong, Y., Hu, J., Wu, X. (2018). The evidence of different learning environment learning effects on vocabulary size and reading comprehension. *Frontiers in Psychology*, 9, 1914. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2018.01914>.
 11. Graves, F.M., Genishi, C., & Alvermann, D.E. (2008). *Teaching individual words: One size does not fit all*. New York: Teachers College Press.
 12. Graves, M.F., & Watts-Taffe, S.M. (2002). The place of word consciousness in a research-based vocabulary program. In A.E. Farstrup & S.J. Samuels (Eds.), *What research has to say about reading instruction* (3rd ed., pp. 140–165). Newark, DE: International Reading Association.
 13. Grynyuk, S. (2016). Foreign language teaching for specific purposes: Basic aspects. *Scientific Journal "ScienceRise"*, 3/5(20), 18–23. <https://doi.org/10.15587/2313-8416.2016.64803>.
 14. Heimlich, J.E., & Pittelman, S.D. (1986). *Semantic mapping: Classroom applications*. Newark, DE: International Reading Association.
 15. Karomatova, Z.F. (2017). Working with a dictionary is an effective way to learn English. *Achievements of Science and Education*, 4(17), 81–82.
 16. Kuchkarova, N. (2024). Development of socio-cultural competence in students based on authentic materials. *News of UzMU Journal*, 1(1.3.1).
 17. Lesaux, N.K., Crosson, A.C., Kieffer, M.J., & Pierce, M. (2010). Uneven profiles: language minority learners' word reading, vocabulary, and reading comprehension skills. *Journal of Applied Developmental Psychology*, 31, 475–483. <https://doi.org/10.1016/j.appdev.2010.09.004>.
 18. Lü, C., Koda, K., Zhang, D., & Zhang, Y. (2015). Effects of semantic radical properties on character meaning extraction and inference among learners of Chinese as a foreign language. *Writing Systems Research*, 7, 169–185. <https://doi.org/10.1080/17586801.2014.955076>.
 19. McKeown, M.G., & Beck, I.L. (2004). Direct and rich vocabulary instruction. In J.F. Baumann & E.J. Kame'enui (Eds.), *Vocabulary instruction* (pp. 13–27). New York: Guilford Press.
 20. Murtazayeva, A. (2023). The importance of language didactics in the development of speech competences. *Scientific-Methodical Journal of Language and Literature Education*, 12, 14–15.
 21. Nabiyeu, A., & Bayzakov, A. (2021). Calculation of a bar for strength and rigidity based on principle of harmonization of traditional and personally-oriented education methods. *European Journal of Life Safety and Stability*, 143–150.
 22. Nagy, W.E., Anderson, R.C., & Herman, P.A. (1987). Learning word meanings from context during normal reading. *American Educational Research Journal*, 24(2), 237–270. <https://doi.org/10.3102/00028312024002237>.
 23. Nagy, W.E., Herman, P.A., & Anderson, R.C. (1985). Learning words from context. *Reading Research Quarterly*, 20(2), 233–253. <https://doi.org/10.2307/747758>.
 24. Nation, I.S.P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9781139524759>.
 25. Reyes, M., & Cruz, N. (2018). Strategies to learn vocabulary through the reading skill at elementary English level of the B.A in English. *Researchgate.net*.
 26. Rydland, V., Aukrust, V.G., & Fulland, H. (2012). How word decoding, vocabulary and prior topic knowledge predict reading comprehension. A study of language-minority students in Norwegian fifth grade classroom. *Reading and Writing*, 25, 465–482. <https://doi.org/10.1007/s11133-011-9181-1>.

- doi.org/10.1007/s11145-010-9279-2.
27. Sattarova, N.A. (2021). Using ESP vocabulary teaching and learning foreign languages in ESP classes. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(5), 480–485.
 28. Stahl, S.A., & Fairbanks, M.M. (1986). The effects of vocabulary instruction: A model-based meta-analysis. *Review of Educational Research*, 56(1), 72–110.
 29. Swanborn, M.S.L., & de Glopper, K. (1999). Incidental word learning while reading: A meta-analysis. *Review of Educational Research*, 69(3), 261–285. <https://doi.org/10.3102/00346543069003261>.
 30. Van den Broek, G.S.E., Wesseling, E., Huijssen, L. (2022). Vocabulary learning during reading: Benefits of contextual inferences versus retrieval opportunities. *Cognitive Science*, 46, e13135. <https://doi.org/10.1111/cogs.13135>.
 31. Yuksel, H.G., & Kavanoz, S. (2010). Does vocabulary knowledge distinguish among proficiency levels of turkish university students?. *The International Journal of Learning*, 17, 513–521. <https://doi.org/10.18848/1447-9494/CGP/v17i05/47071>.